

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YAKUBOV INOM DANIYAROVICH

**SEPARATOR-TOZALAGICH QURILMASINING QOZIQLI BARABANI
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI
ASOSLASH**

05.02.03- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Yakubov Inom Daniyarovich

Separator-tozalagich qurilmasining qoziqli barabani
konstruksiyasini takomillashtirish va parametrlarini asoslash.....3

Якубов Ином Даниярович

Совершенствование конструкции колкового барабана
сепараторно-очистного устройства и обоснование его параметров.....25

Yakubov Inom

Improvement of the construction of the pile drum of the
separator-cleaner device and justification of its parameters.....47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YAKUBOV INOM DANIYAROVICH

**SEPARATOR-TOZALAGICH QURILMASINING QOZIQLI BARABANI
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI
ASOSLASH**

05.02.03- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T3575 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Farg'ona davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maksudov Ravshan Xasanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sarimsoqov Olimjon Sharipjonovich
texnika fanlari doktori, professor

Mo'minov Mansurbek Raximovich
t.f.f.d., (PhD) katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "22" iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3- bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 540 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "10" iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil "10" iyuldagi 119-raqamli reyestr bayonnomasi).



Muradov

R.M. Muradov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

Bobojanov

X.T. Bobojanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

Xolikov

Q.M. Xolikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasidan sifatli mahsulot olish, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan va ekologik toza to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaradigan texnika va texnologiyalarni takomillashtirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Xozirgi vaqtda paxta yetishtirish bo'yicha AQSH, Hindiston, Braziliya davlatlari yetakchi o'rinlarda turadi¹. Dunyo statistikasi va paxta bo'yicha Xalqaro konsultativ qumita (ICAC) ning so'ngi ma'lumotlariga ko'ra paxta tolasini eksportyorlari to'rttaligiga AQSH, Hindiston, Avstraliya va Braziliya hamda importyorlar Bangladesh, Vetnam, Xitoy, Turkiya va Indoneziya mamlakatlari kiradi. Paxta tozalash sanoatini izchil va barqaror rivojlantirish, tarmoq korxonalarida zamonaviy asbob-uskunalarini joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanish darajasini oshirish, jahon paxta bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. Bu borada, jahon paxta tozalash sanoatida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan paxtani tozalash uskunalarini takomillashtirish va resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonda paxtani dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, paxtani tozalash texnologik jarayonida uning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishni imkonini beradigan, mahsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish ham muhim ro'l o'ynaydi. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida mahsulot sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qiluvchi texnikaviy yechimlarni, ishlash rejimlari va ko'rsatkichlarini optimallashtirish uchun mazkur sohadagi tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, paxtani quritish va tozalashning resurstejamkor samarali uskunalarini yaratish usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, shu jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni, jumladan "...Miliy iqtisodiyot barqarorligi ta'minlash va yangi ichki mahsulotda sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish..."² vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan chiqindiga chiqib ketayotgan tolalarni tutib qolish va changli havoni samarali

¹ International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/emailsecretariat@icac.org>. September 1,2017.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni. lex.uz.uz/docs/5841063

tozalashni amalga oshiradigan mashinalarning texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-fevraldagi 253-son “Paxta, to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining **II**. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi.

Separator qurilmasi konstruksiyasini optimallashtirish, shuningdek havo transport tizimiga o‘rnatilgan separator-tozalagich barabanlarini takomillashtirish kabi masalalarni hal qilishda, bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan M.N.Willcutt, S.E.Hughs, G.J.Mangialardi, S.G.Jasckson, G.C.Robert, W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Barker, P.A.Boving, J.W.Laird, V.G.Arude, S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.VanDoorn, B.M.Norman va boshqalar.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarining ko‘rsatkichlari, amaliy masalalari va ishlash rejimlarini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Bulardan: B.A.Levkovich, S.D.Boltaboyev, A.N.Nuraliyev, S.A.Samandarov, G.I.Miroshnichenko, R.Z.Burnashev, G.D.Djabbarov, G.I.Boldinskiy, R.V.Korabelnikov, B.I.Roganov, X.K.Tursunov, A.Djurayev, E.T.Maksudov, T.M.Kuliyev, A.YE.Lugachev, X.T.Axmedxodjayev, R.M.Muradov, B.Mardonov, Sh.Sh.Xakimov, O.Sh.Sarimsokov, X.K.Raxmonov, I.D.Madumarov, A.X.Bobomatovlar kabi juda ko‘p olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida paxtani qayta ishlash jarayonining sezilarli rivojlanishida salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalari tahlilidan aniqlandiki, bugungi kunda paxta xomashyosidan yuqori sifatli tola olinishini ta‘minlaydigan, shu jumladan mayda iflosliklardan tozalash mashinalarini ishchi organlarini takomillashtirish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Namangan viloyat hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining BV-Atex-2018-114 raqamli “Tolaning sifatini yaxshilash maqsadida paxta separatori konstruksiyasini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxtani mayda iflosliklardan tozalash samarasini oshirish uchun separator-tozalagichning qoziqli barabanlarning konstruktiv parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan separator-tozalagichda ishlatiladigan mahalliy va xorijiy texnologik mashinalarni ishlash tamoyillari, konstruktiv xususiyatlarni, texnik va texnologik tasniflarini analitik tahlil etish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalashdagi qoziqli baraban parametrlarini tozalash jarayoniga ta'sirini nazariy tahlil etish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalashning sifat va unumdorlik ko'rsatkichlarini oshirishni ta'minlovchi mashinaning texnologik konstruksiyasini ishlab chiqish;

paxta xomashyosini havo transport tizimida mayda iflosliklardan tozalashni amalga oshirish imkonini beradigan texnologik mashinani tajribaviy tadqiqotlarini bajarish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash uchun takomillashtirilgan mashinani ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining bazasida takomillashtirilgan ishchi organlarni joylashtirib o'zgartirilgan tajriba nusxasi olingan.

Tadqiqotning predmeti paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining bazasida takomillashtirilgan ishchi organlardan foydalanib paxtani tozalash jarayonini uning texnologik parametrlariga bog'liqligi qonuniyatlari, paxta bo'lagini qoziqli baraban va to'rli yuza oralig'idagi harakati qonuniyatlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida paxtani dastlabki ishlash, nazariy va amaliy mexanika, matematik statistika usullaridan, solishtirish, baholash va maqsadli elektron dasturlar yordamida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtani mayda iflosliklardan havo transport tizimida samarali tozalash jarayonini ta'minlovchi takomillashtirilgan separator-tozalagichga qoziqli-plankali baraban o'rnatish orqali konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

har bir seksiyadagi iflos aralashmalarining massasi va ularning tozalash zonasiga kiradigan massaning har xil qiymatlaridagi umumiy miqdorini Eyler tenglamasi orqali hisoblash formulasi aniqlangan;

separator-tozalagichni plankali barabandagi paxta bo'laklaridan ajralib chiqadigan iflosliklar A.G. Sevostyanov modeli orqali mayda iflosliklarni ajralishi natijasida tola massasining kamayishi hisobiga paxta tezligi va massasining turli xil qiymatlardagi harakat tenglamalari ishlab chiqilgan;

separator-tozalagichining takomillashtirilgan ishchi organli mashinasini konstruktiv parametrlari va texnologik ish rejimlari tozalash barabaniga o'rnatilgan plankalarning o'qqa nisbatan turish burchagi, planka uchi bilan to'rli yuza oraliq masofasi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi Tadqiqot yakunida nazariy va eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlarining mosligiga, paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonining matematik modellarini oqilona tanlash va paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasini takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqarishga joriy etish sinovidan o'tkazishning ijobiy natijalariga muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani mayda ifloslikdan tozalovchi qoziqli ishchi organlari bilan tozalash jarayonini bog'lanishlari va tozalash samarasini paxtani qoziqli ishchi organlarga maqbul miqdorlarda berishni analitik bog'lanishlari ishlab chiqilganligi, texnologik jarayonni ratsional parametrlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takomillashtirilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining takomillashtirilgan nusxasidan foydalanishda paxtani mayda ifloslikdan tozalash samaradorligi oshganligi va paxta tozalash korxonalarida paxtani mayda ifloslikdan tozalovchi mavjud 1XK tozalagichlarini takomillashtirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani iflosliklardan tozalash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy ishlar natijalari asosida:

takomillashtirilgan separator-tozalagich Jizzax viloyati Paxtakor tumani "Silverleaf" MCHJ QK klasterining paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan (O'zbekiston paxta to'qimachilik klasterlari uyushmasi 02/22-341-sonli ma'lumotnomasi). Natijada havo transport tizimida paxtani tozalash uchun o'rnatilgan separator-tozalagichning takomillashtirilgan namunasining I-sanoat navli qo'l terimi paxtalarini tozalashda 7,9 % ga yuqori, II-sanoat navli mashina terimi paxtalarini tozalashda 9,6 % ga yuqori bo'lishga, nuqson va iflos aralashmalar miqdori 1.1-1.2% ga kamayishi hisobiga, qayta ishlangan paxtadan olingan tola sifatining yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarda ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha 10 ilmiy ish chop qilingan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqolalar, jumladan, 5 ta respublika va 3 ta chet el ilmiy jurnallarida maqola chop etilgan. 1 ta monografiya nashr etilgan. 1 ta EHM uchun dasturiy guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Separator-tozalagich qurilmasining texnika va texnologiyasini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ishlar tahlili” deb nomlangan birinchi bobida** paxtani dastlabki ishlash jarayonida paxta separator-tozalagichlarning texnika va texnologiyalari chuqur o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy texnologiyalar va respublikamizning bir qator olimlari tomonidan separator-tozalagich mashinalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlari tahlil qilingan.


Bu ishlar natijasida separator-tozalagichlarning nazariyasi va texnika-texnologiyasi muayyan darajada rivojlandi. Shunga qaramay, separator-tozalagichlarning tozalash seksiyasida aniqlangan kamchiliklar o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash muhim jarayon hisoblanib, uni keyingi jinlash va to'lani tozalash jarayonlariga katta ta'sir etadi. Agar mayda iflosliklar yetarli darajada tozalanmasa u passiv ifloslikdan aktiv ifloslikga o'tadi va keyingi jinlash va tola tozalagichda ajratilishi qiyinlashadi, tiqilishlar sodir bo'ladi, tola va chigit shikastlanadi, natijada elektr energiya sarfini oshishiga olib keladi. Mayda iflosliklardan tozalashda qoziqli barabanlarga uzatilayotgan paxtaning oldindan titilmagan paxta xomashyosida yetarlicha zich bo'lgan bo'lakchalarining o'lchamlari to'rtli yuzalarning o'lchamlaridan katta bo'lganligi natijada to'rtli yuza teshiklari berkilib qoladi. Agar bir necha bo'laklar teshikga tiqilib qoladigan bo'lsa, ayniqsa namligi yuqori bo'lgan chiqindilar yuzalarda qavatlar hosil qiladi va barabaning sekinlashishiga, bazan barabaning to'xtab qolishiga olib kelishi mumkinligi kabi muammolar oxirigacha xal etilmagan.

Yuqoridagilarga ko'ra, paxtani mayda iflosliklardan havo transport tizimida tozalashda separator-tozalagich uskunasi tozalash samaradorligini oshirish va paxta tarkibidagi chigit va to'lani mexanik shikastlanishini kamaytirish maqsadida qoziqli baraban konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha texnik yechim ishlab chiqish masalalari hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Paxta tozalash jarayonining nazariy tadqiqoti” deb nomlangan ikkinchi bobiga** ko'ra paxtani mayda iflosliklardan havo transport tizimida samarali tozalash jarayonini ta'minlovchi separator-tozalagichning takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan. Taklif qilinayotgan separator-tozalagich paxtani havodan ajratib olish bilan bir qatorda uni iflosliklardan tozalash imkonini beruvchi vakuum-klapan bilan vertikal tekislikda simmetrik holatda qoziqli baraban va to'rtli yuza joylashtirilgan.

Diametrining teng yarmiga teng $D/2$ bo'lgan qoziqchali baraban paxta oqimi aloqa yoyi bo'ylab harakatlansin va halqa barabanining dumaloq yuzasi tozalanganda, qoziq barabanining elementlari paxta xomashyosining o'tishi bilan o'zaro ta'sir qilsin

(1-rasm). Koordinata tizimini silindrning markazidan o'rnatamiz va bu yerda OX gorizonttal ravishda o'ngdan chapga yo'naltiriladi, bu yerda OZ unga yuqoridan pastgacha perpendikulyar. OX va OZ radiusi orasidagi α burchakni aniqlaymiz. Massaning yoy bo'ylab harakatlanishi qutb koordinatalariga va statsionar koordinatalarga qarab ikki o'lchovli (r, α) deb taxmin qilinadi. Tezlik vektorining radial va tangensial $v_n(r, \alpha)$ va $v_\tau(r, \alpha)$ tashkil etuvchilarini ham belgilaymiz.



1-rasm. Paxta xomashyosini tozalashdagi qoziqli baraban qismlari o'zaro ta'sirini hisoblash sxemasi ($\frac{D}{2} = R_b + h$)

1- baraban plankasi; 2- to'rli yuza; 3 – paxta bo'lagi

Tozalash jarayoni taxminan quyidagi holatda amalga oshiriladi, seksiyalarda

$$\frac{D}{2} - h < r < \frac{D}{2}, \varphi_0 \leq \alpha \leq \varphi_n \quad (k = 1 \dots n, \alpha_n = \varphi_n, n - \text{qoziqlar soni}),$$

n ta sektordan iborat.

Radial tezlikni $v_n(r, \alpha)$ hisoblaymiz.

Oqimdan $ds = \frac{D}{2} d\alpha$ elementni tanlaymiz va oqim harakatini statsionar deb hisoblab, har bir sektorda zichlikka $\rho_i(\alpha)$ (kg/m^3), tezlikka $v_i(\alpha)$ (m/s) va bosimga $p_i(\alpha)$ (Pa) nisbatan Eyler tenglamasini tuzamiz.

$$\rho_i v_i \frac{dv_i}{d\alpha} = -\frac{dp_i}{d\alpha} + \rho_i g (\sin \alpha - f \cos \alpha) - f \rho_i \frac{2v_i^2}{D} \quad (1.1)$$

1. Bu yerda f - paxta oqimi va panjara yuzasi orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti, har bir sektor uchun (1.1) tenglama uchta noma'lumni $\rho_i(\alpha)$, $v_i(\alpha)$ va $p_i(\alpha)$ bog'lash uchun quyidagi shart kelib chiqadi:

2. Statsionar oqim

$$\rho_i v_i h L = \rho_o v_o h L = Q_o \quad (1.2)$$

Bu yerda ρ_o (kg/m^3), v_o (m/s) - paxtani ishlov berish zonasiga yetkazib berish joyidagi zichlik va oqim tezligi, ishlov beriladigan oqim qatlamining qalinligi h (m), унинг узунлиги L (m), ishlov berish zonasiga yetkazib berilgan paxta bo'lagining vaqt birligida og'irligi Q_o (10^{-3} kg/sek).

3. Paxta oqimi bir hil muhit tomonidan modellashtirilgan va har bir sektor uchun holat tenglamasi yuqorida qayd etilgan (1.1).

$$p_i = p_0 + K(1 - \frac{\rho_0}{\rho_i}) \quad (1.3)$$

p_0 - uzatish bo'limiga oqim bosimi, K-tajribadagi doimiy.

4. Baraban yuzasida bir xil qutb burchaklari bo'lgan qoziqlar mavjud $\Delta\varphi = 2\pi/n$, bo'y v_k tezlikda harakatlanuvchi oqimni har bir bo'limlarga uradi $\alpha = \alpha_i = \varphi_0 + \varphi_i$ $\varphi_i = (i-1)\Delta\varphi$ ($i=1,2,3..n.$, n - tozalash zonasida oqim bilan o'zaro ta'sir qiladigan qoziqlar soni), shuningdek agar $v_i = v_k$, u holda $\alpha = \alpha_i$ shart bajariladi.

5. Ta'sir nuqtalarida faqat tezlikning bir zumda o'zgarishi sodir bo'ladi, zichlik esa o'zini qiymatini saqlab qoladi. (1.2) va (1.3) nisbatlardan bosim va tezlik oqimi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish mumkin.

$$p_i = p_0 + K(1 - v_i/v_0) \quad v_0 = Q_0/\rho_0 hL \quad (1.4)$$

(1.1) tenglamani (1.4) tenglama bilan bog'liqligini hisobga olgan holda quyidagi ko'rinishda yozamiz.

$$\frac{dv_i}{d\alpha} = \frac{M^2}{M^2 - 1} \left[\frac{gD}{2v_i} (\sin\alpha - f \cos\alpha) - fv_i \right] \quad (1.5)$$

Bu yerda $M = v_0/c$, $c = \sqrt{K/\rho_0}$

(1.5) tenglamani $y_i = v_i^2$ funksiyaga qo'llab, y_i nisbatan yozamiz:

$$\frac{dy_i}{a\lambda} + 2f \frac{M^2}{M^2 - 1} y_i = \frac{gD \cdot M^2}{M^2 - 1} (\sin\alpha - f \cos\alpha) \quad (1.6)$$

(1.6) tenglama chiziqli bo'lib, ushbu shart bo'yicha $y_i(\alpha_i) = v_k^2$ yechim $y_i(\alpha)$ quyidagi ko'rinishga keladi

$$\text{bundan } \alpha_{i-1} < \alpha < \alpha_i \quad y_i = \exp\left[-\frac{2fM}{M^2 - 1} \alpha\right] \left[v_k^2 \exp\left[\frac{2fM^2 \alpha_i}{M^2 - 1}\right] + \frac{gD \cdot M^2}{2M^2 - 1} \int_{\alpha_i}^{\alpha} F(\alpha) d\alpha \right] \quad (1.7)$$

$$\text{Bu yerda } F(\alpha) = e^{\frac{2fM}{M^2 - 1} \alpha} (\cos\alpha - f \sin\alpha)$$

Har bir seksiyadagi tola zichligi ushbu formula bo'yicha aniqlanadi

$$\rho_i = \rho_0 v_0 / \sqrt{y_i} \quad (1.8)$$

Bunday holda, mahsulotni tozalash vositasiga kirish tezligi (1.5) formula bo'yicha aniqlanadi.

A. G. Sevostyanov modeliga ko‘ra, ifloslantiruvchi moddalar chiqishi natijasida tola massasining pasayishi ifodaga to‘g‘ri keladi.

$$\frac{dm}{m} = -\lambda \frac{dp}{\rho} \quad (1.9)$$

Birinchi seksiya uchun, agar $\alpha = \varphi_0$, integrallashning boshlang‘ich shartidan foydalanib $m = m_0$, $\rho = \rho_0$, keyingilarini olamiz:

$$\frac{m_1}{m_0} = \left(\frac{\rho_0}{\rho_1} \right)^\lambda \quad (1.10)$$

Bu yerda $\lambda = 1/(1+a)$, a - doimiy ($a = \text{const}$)

Yoy bo‘yicha ajralayotgan aralashmali iflosliklarning nisbiy massasi $\varphi_0 < \alpha_1$

$$\varepsilon_1 = \frac{m_0 - m_1}{m_0} = \frac{\Delta m_1}{m_0} = 1 - \frac{m_1}{m_0} = 1 - \left[\frac{v_k}{v_1(\alpha)} \right]^\lambda \quad (1.11)$$

Birinchi va ikkinchi seksiya uchun $\varepsilon(\alpha)$ uzluksiz funksiya shartidan foydalaniladi.


Har bir bo‘lim bo‘yicha ajralayotgan aralashmali iflosliklarning umumiy soni:

$$Q_1 = Q_0 \int_{\varphi_0}^{\alpha_1} \varepsilon_1(\alpha) d\alpha, \quad Q_2 = Q_0 \int_{\alpha_2}^{\alpha_3} (1 - \varepsilon_1(\alpha_2)) \varepsilon_2(\alpha) d\alpha \quad (1.12)$$

Bu yerda $\varepsilon_2 = \varepsilon_1(\alpha_1) \left(\frac{\rho_1(\alpha_1)}{\rho_1(\alpha)} \right)^\lambda$, $\varepsilon_3 = \varepsilon_2(\alpha_2) \left(\frac{\rho_2(\alpha_2)}{\rho_2(\alpha)} \right)^\lambda$

$$\varepsilon = \frac{M_0 - M}{M_0} = 1 - \frac{M}{M_0} = 1 - r_0 e^{-\lambda \cdot (\vartheta_0 + \dot{\alpha}_1) \cdot [(\vartheta_0 + \dot{\alpha}_1)^2 \tau + v_0 \cos(\alpha_1 + \alpha_0 + \vartheta_0 \tau)]} \quad (1.13)$$

Paxta oqimidan mayda iflosliklarni ajratishda qo‘llanilayotgan plankali barabanning tozalash samaradorligi grafiklarda keltirilgan bo‘lib λ ni xar xil qiymatlarida τ bo‘yicha o‘zgarishi aniqlangan.



2-rasm. Paxtaning iflosliklarni ajratish samaradorligi ko‘effitsiyentining paxtaning turli xil tezliklari $\vartheta_{1\kappa} = 0,3 \text{ m/c}$, $\vartheta_{2\kappa} = 0,6 \text{ m/c}$, $\vartheta_{3\kappa} = 0,9 \text{ m/c}$ qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi.

Agar plankalar orasidagi burchaklar bir xil bo‘lib ularning soni n – ta bo‘lsa

$$\alpha_k = \frac{\alpha \cdot m}{n} \cdot N + \alpha_0 \text{ ga teng bo‘ladi.}$$

Bu yerda α_m – tozalash yoyini belgilaydigan markaziy burchak tozalash zonasidagi umumiy iflosliklar massasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$m = \frac{m_0}{n} \left[n - e^{-\lambda_0 \frac{\alpha_m}{n}} - e^{-\lambda_0 \frac{2\alpha_m}{n}} - \dots e^{-\lambda_0 \alpha_m} \right] =$$

$$= \left[1 - \frac{n}{m} e^{-\lambda_0 \frac{\alpha_m}{n}} \left[1 + e^{-\lambda_0 \frac{\alpha_m}{n}} + e^{-2\lambda_0 \frac{\alpha_m}{n}} + \dots e^{-\lambda_0 (n-1) \frac{\alpha_m}{n}} \right] \right]$$


$$\varepsilon_{ok} = e^{-\lambda_0 \frac{\alpha_m}{n}}$$

belgilansa

$$m = m_0 \left[1 - \frac{m_0}{n} \varepsilon_2 (1 + \varepsilon_1 + \varepsilon_1^2 + \dots e_1^{n-1}) \right]$$

tenglik olinadi. Bu yerda $\varepsilon_1 < 1$ bo'lganligi sababli cheksiz noma'lum geometrik progressiya xadlari yig'indisi formulasidan foydalanamiz

$$m = m_0 \left[1 - \frac{m_0}{n} \cdot \varepsilon_1 \cdot \frac{1 - \varepsilon_1}{1 - \varepsilon_2} \right] = m_0 \left[1 - \frac{m_0}{n} \cdot \frac{\varepsilon_1 (1 - \varepsilon_n)}{1 - \varepsilon_1} \right] = m_0 \left[1 - \frac{m_0}{n} \cdot \frac{e^{-\lambda_0 \frac{\alpha_m}{n}} (1 - e^{-\lambda_0 \alpha_m})}{1 - e^{-\lambda_0 \frac{\alpha_m}{n}}} \right] \quad (1.14)$$



3-rasm. Paxtani massasidan mayda iflosliklarni ajratish samaradorligi ko'ffitsiyentining plankalar tezliklarini turli xil $\mathcal{G}_{1\kappa} = 0,3 \text{ M/c}$, $\mathcal{G}_{2\kappa} = 0,6 \text{ M/c}$, $\mathcal{G}_{3\kappa} = 0,9 \text{ M/c}$ qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi.


Nazariy tadqiqotlar natijalaridan olingan yuqoridagi grafiklarda ko'rinib turibdiki, (2-3-rasmlar) tozalash texnologiyasi jarayonida uskunalarining tozalash samaradorliklarining yuqori bo'lishi tozalash ko'ffitsiyenti λ – ga bog'liq ekanligi ko'rinib turibdi. Tozalash ko'ffitsiyenti o'z navbatida paxta namligi va harorati o'zgarishiga bog'liq bo'lib, tajribalardan olingan natijalarga asoslangan holda aniqlandi va paxta tolasi harorati oshib borgan sari tozalash ko'ffitsiyenti o'sishi tajribalardan olingan natijalar orqali o'z tasdig'ini topadi.

Ta'sir vaqti t odatda kichik raqamli qiymatga ega bo'lganligi sababli, tezlashuv nuqta tezligining o'zgarishiga ko'proq mos keladi, buning natijasida zarba paytida harakat qiluvchi kuchlar odatdagidan bir necha baravar ko'p bo'ladi va zarba jarayonini ko'rib chiqishda ikkinchisi hisobga olinmaydi.

Taklif qilinayotgan separator-tozalagich paxtadan havoni ajratib olish bilan bir qatorda uni iflosliklardan tozalash imkonini beruvchi vakuum-klapan bilan vertikal tekislikda simmetrik holatda qoziqli baraban va toʻrli yuza joylashtirilgan boʻlib, toʻrli yuzaning foydali yuzasini oshirish maqsadida teshiklar 5×50 mm dan qilib tayyorlangan. Teshiklar qoziqli barabanning aylanish yoʻnalishida 45° qiyalikda joylashgan, shuningdek paxtaning qoziqlar taʼsiridagi harakatini koʻpaytirish hamda koʻproq titilib tozalanishi uchun qoziqlar bilan toʻrli yuzaning A(°) nuqta taʼsiridagi masofa 17-18 mm, B(°) 14-15 mm ni tashkil qiladi (4-rasm).

Planka yuzasi boʻyicha yoyilgan kuchlarni taʼsirini inobatga olamiz

$$\vec{N} = \vec{Q} = \vec{q} \cdot AB$$



4-rasm. Plankali barabandagi paxtani aralash iflosliklardan tozalashda taʼsir etuvchi qarshilik kuchlarini sxemasi

1-2- baraban plankasi; 3- toʻrli yuza; 4 – paxta boʻlagi

Nazariy jihatdan paxtadan yirik iflosliklarni tozalashni tahlil qilsak, (1.14) tenglama bilan (1.13) bogʻliqligini hisobga olib quyidagi shaklda yozamiz.

$$\begin{cases} kv^2 + q \cdot AB - 2m\omega\dot{x} - mg \sin \alpha = m\ddot{y} \\ m\omega^2 (R_0 + h) + mg \cos \alpha - \mu \cdot q \cdot AB = m\ddot{x} \end{cases} \quad (1.15)$$

Baraban aylanma harakatining burchak tezligini oʻzgarish qonuni $\alpha = \omega t$ boʻyicha

$$\text{aniqlanadi} \begin{cases} kv^2 + \frac{2}{m} AB - 2\omega\dot{x} - g \sin \alpha = \ddot{y} \\ \omega^2 (R_0 + h) + g \cos \alpha - \frac{\mu q}{m} AB = \ddot{x} \end{cases} \quad (1.16)$$

Agar $\overline{AB} = l$ ga teng deb taxmin qilsak, u holda:

$$\begin{cases} \frac{k}{m} v^2 + \frac{ql}{m} - 2\omega\dot{x} - g \sin \alpha = \ddot{y} \\ \omega^2 (R_0 + h) + g \cos \alpha - \frac{\mu ql}{m} l = \ddot{x} \Rightarrow \\ \Rightarrow \dot{x} = \left(\omega^2 (R_0 + h) - \frac{\mu ql}{m} \right) t - g \omega \sin \omega t + c_1 \end{cases} \quad (1.17)$$

Boshlang'ich shartdan $\dot{x}_{t=0} = 0 \Rightarrow c_1 = 0$ bunda

$\dot{x} = \left(\omega^2 (R_\sigma + h) - \frac{\mu ql}{m} \right) \cdot t - g \omega \sin \omega t$ hisobga olamiz va (1.16) tenglamaga qo'yamiz

$$\frac{k}{m} v^2 + \frac{ql}{m} - 2 \cdot \omega \left[\left(\omega^2 (R_\sigma + h) - \frac{\mu ql}{m} \right) t - g \omega \sin \omega t \right] - g \sin \omega t = \ddot{y}$$

$$\frac{k}{m} v^2 + \frac{ql}{m} - 2 \cdot \omega^3 (R_\sigma + h) t + \frac{2 \omega \mu ql}{m} t + 2 \omega^2 g \omega \sin \omega t - g \sin \omega t = \ddot{y}$$

$$\dot{y} = \left(\frac{ql}{m} + \frac{k}{m} v^2 \right) \cdot t - 2 \omega^2 (R_\sigma + h) \cdot \frac{t^2}{2} + \frac{2 \omega \mu ql}{m} \cdot \frac{t^2}{2} + 2 \omega^3 g \cos \omega t + c_2$$

Boshlang'ich shartdan $(\dot{y})_{t=0} = 0 \Rightarrow c_2 = 0$ bunda

$$y = \left(\frac{ql}{m} + \frac{k}{m} v^2 \right) \cdot \frac{t^2}{2} + \left(\frac{2 \omega \mu ql}{m} - 2 \omega^2 (R_\sigma + h) \right) \cdot \frac{t^3}{2} - 2 \omega^4 g \sin \omega t + c_4$$


Oxirgi shartdan $(y)_{t=\tau} = L \Rightarrow$ u holda

$$L = \left(\frac{ql}{m} + \frac{k}{m} v^2 \right) \cdot \frac{\tau^2}{2} + \left(\frac{\omega \mu ql}{m} - \omega^2 (R_\sigma + h) \right) \cdot \frac{\tau^3}{3} - 2 \omega^4 g \sin \omega \tau \quad (1.18)$$


Bu yerda:

v – tezlik; ω – burchak tezlik; m – paxta bo'lagi massasi; μ – ishqalanish koefitsiyenti; q – yoyilgan kuch; h – uzunlik; k – proporsionallik koefitsiyenti; g – erkin tushish tezlanishi; l – paxta bo'lagi yoyining uzunligi

(1.17) tenglama baraban plankasidan o'tuvchi paxta oqimidan mayda iflosliklarni tozalash tahlili.



5-rasm. Paxtani mayda iflosliklardan ajratishda plankali baraban ta'siridagi massasining turli xil $m_1 = 2 \text{ zp}$, $m_2 = 4 \text{ zp}$, $m_3 = 6 \text{ zp}$ qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi.




6-rasm. Paxtani massasidan mayda iflosliklarni ajratish plankali barabanning turli xil tezliklari $\vartheta_1 = 30 \text{ m/c}$, $\vartheta_2 = 25 \text{ m/c}$, $\vartheta_3 = 20 \text{ m/c}$ qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi.

Yuqoridagi grafiklar taxlilidan (5-6-rasmlar) plankali baraban ta'sirida paxta oqimining harakati natijasida to'rtli yuza bilan orasida trayektoriyasi keltirilgan. Turli xil massadagi paxtani titilishida va to'rtli yuza bo'ylab harakati ta'sirini plankali barabanning turli chiziqli tezliklarda keltirilgan.

Xar bir paxta bo'lakchadan ajraladigan iflosliklarning zichligi quyidagi tenglama yordamida yechimi aniqlanadi.

$$\frac{d\rho_k}{dt} = \lambda \cdot \rho_k \cdot (g \cdot \sin \alpha + \alpha^2 \cdot R) \cdot R \cdot \dot{\alpha}$$

Bu tenglamalar yuqorida keltirilgan (1.11) tenglama bilan birgalikda $\rho_k(0) = \rho_0$ shartida integrallanadi.




7-rasm. Tozalash samaradorlik koeffitsiyenti $\varepsilon = \frac{\rho_1 - \rho_0}{\rho_1}$ ning xar bir paxta bo'lakchalari uchun burchak tezliklarini ikki xil qiymatlarida va vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi

Olingan grafiklar tahlilidan shuni aytish mumkinki, (7-rasm) uskunalarining tozalash samaradorliklarini oshirish uchun tozalash uskunalarining turli xil o'lchamli baraban plankasidan foydalanish hisobiga erishish mumkinligi nazariy tadqiqotlar natijalaridan ko'rinib turibdi.

Tahlil natijasidan shunday xulosa kelib chiqadiki, kiruvchi mahsulot massasining kamayishi, mayda va yirik iflos aralashmalarining intensiv ravishda yaxshiroq tozalanishiga olib keladi, bu qonuniyat tozalash zonasining birinchi va ikkinchi seksiyasida aniqroq kuzatildi.

Dissertatsiyaning **“Eksperimental tadqiqotlarning uslublari va natijalari” deb nomlangan uchinchi bobida**, tavsiya etilgan paxtani havo transport tizimida mayda iflosliklardan tozalash uchun separatorning takomillashtirilgan konstruksiyasini paxtani tozalash samarasiga ta'sirini o'rganish va maqbul o'lchamlarini asoslash uchun bajariladigan tajriba ishlarining uslubi ishlab chiqildi.

Separator-tozalagichning qoziqli barabani konstruksiyasini tozalash samaradorligiga ta'sirini o'rganish uchun (8-9-rasmlar)da ko'rsatilgan “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish” kafedrasida 1XK rusumli paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash uskunasi bitta barabanli laboratoriya uskunasi bilan foydalanildi. Qoziqli barabanni to'rt yuzada paxtaning harakati davomida uni titish va silkitish jarayonini amalga oshirish bilan mayda iflosliklarni toladan intensiv ajralishini amalga oshirish uchun ketma ketlikda barabanga qoziq va plankalar o'rnatildi. Qurilma ustida tajribalar o'tkazish uchun qurilma konstruktiv jihatdan ehtiyot qismlarini almashtirishga va ishchi parametrlarini o'zgartirish imkoniyati bo'lishi e'tiborga olindi.



8-rasm. Tajriba o'tkazish uchun tayyorlangan uskuna sxemasi. 1-ta'minlagich; 2-qoziqli baraban; 3-to'rt yuz; 4-iflos aralashmalarni yig'ish qutisi; 5-tozalangan paxtani yig'ish qutisi.



9-rasm. Laboratoriya uskunasi umumiy ko'rinishi. 1-shaxta, 2-yo'naltirgich, 3-qoziqli baraban, 4-to'rt yuz.

Barcha tahlillar “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish” kafedrasida laboratoriyasida O‘z DSt 643:2017, O‘z DSt 644:2006, O‘z DSt 592:2018 Davlat standartlarida keltirilgan metodikalar bo‘yicha aniqlandi.

Tajriba uchun tayyorlangan plankalar va qoziqli baraban (10-rasm)da keltirilgan.



a)



b)

10- rasm. Tajriba uchun tayyorlangan plankalar va qoziqli baraban
a-rasm. Qoziq (1) va planka (2). b-rasm. Tayyorlangan qoplama.

Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash bo‘yicha mavjud tadqiqotlar tahlili, shuningdek, nazariy tadqiqotlarning tahliliga asoslanib, har xil shakldagi qoziqli barabanlardan foydalanishni hisobga olgan holda, biz tozalagichdagi qoziq barabanlarining asosiy vazifalarini sanab o‘tishimiz mumkin:

- paxta bo‘laklarini qoziqlari bilan tutish;
- paxtani titish;
- to‘rli yuza sirtida paxtani sudrash;
- paxtani tashishni ta‘minlash;
- paxtani mayda iflos aralashmalardan tozalash.

Amaldagi qoziqli barabanlar yuqorida keltirilgan vazifalarni to‘liq ta‘minlay olmayapdi, shuning uchun quyidagi variantlar bo‘yicha qoziqli baraban konstruksiyasini o‘zgartirilgan holda tajribalar har xil ish unumdorligida o‘tkazildi.

Qoziqli baraban.


Plankali baraban.

Qoziqli bir plankali baraban.

Qoziqli ikki plankali baraban.

Bunda qoziqli barabanda plankalarni joylashtirishda bir chiziqda ketma ketiniga qoziq+planka+qoziq+planka joylashtirilsa keyingi qator chizig‘iga planka+qoziq+planka+qoziq etib joylashtirildi. Shunda planka bilan qoziqlarning joylashuvi shaxmat ko‘rinishiga keldi, bunda paxtani titilish hamda silkitib sudrash amalga oshiriladi.

